

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
va "Teach for Uzbekistan"
o'rtasida universitet talabalarini ish bilan ta'minlash to'g'risida
MEMORANDUM

"29" mart 2024 y.

Toshkent shahri

Nizom asosida faoliyat yuritayotgan O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti (keyingi o'rinlarda Universitet deb yuritiladi) rektori I.M.Tuxtasinov bir tomondan, hamda Nizom asosida faoliyat yuritayotgan "Teach for Uzbekistan" (keyingi o'rinlarda Tashkilot deb yuritiladi) rahbari U. Yuldosheva ikkinchi tomondan, mazkur Memorandumni quyidagilar haqida tuzdilar:

I. Memorandum maqsadi:

1. Tomonlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev rahbarligida 2022-yil 4-mart kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining 19-son bayoni 3-ilovasi bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim muassasalari talabalari bandligini ta'minlash bo'yicha chora tadbirlar "Yo'l xaritasining" 17.1-bandida oliy ta'lim muassasalari bilan yirik kompaniya, klaster va boshqa korxonalar o'rtasida hamkorlik memorandumlarini imzolash to'g'risidagi topshiriqni bajarish maqsadida ushbu hamkorlik memorandumni imzoladilar.

1.2. Universitet talabalar bandligini ta'minlash maqsadida tashkilotning vakant o'rinlari haqidagi e'loniga muvofiq talabalarning o'qishdan bo'sh vaqtlarida ishga yuborish, tashkilot esa ularni mehnat shartnomasi asosida to'liqsiz ish kuni rejimi bilan ishga qabul qilish majburiyatini oladi.

II. Tomonlarning huquq va majburiyatlari:

2.1. Universitetning huquq va majburiyatlari:

- 2.1.1. Mazkur memorandum asosida talabalarning mehnatini tashkil etish bo'yicha tashkilotning vakant o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlarni talabalarga yetkazilishini ta'minlash;
- 2.1.2. Ishga joylashgan talabalar va ularga biriktirilgan mas'ul xodimlar ro'yxatini yuritish;
- 2.1.3. Ishga qabul qilingan talabalar uchun tegishli sharoitlar yaratishni tashkilotdan talab qilish;
- 2.1.4. Ishga qabul qilingan talabalarni ichki mehnat tartibi, mehnat muhofazasi, yong'in va texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilish bo'yicha tushuntirishlar olib borishni tashkilotdan talab qilish;
- 2.1.5. Tashkilotning faoliyatiga aralashmasdan ishlovchi talabalar uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishish.
- 2.1.6. Ishga qabul qilingan talabalarni tungi vaqtlardagi ishlarga, shuningdek ish vaqtidan tashqari ishlarga jalb etilmasligini tashkilotdan talab qilish;
- 2.1.7. Ishga qabul qilishda, ish beruvchi, dam olish kunlaridagi tadbirlarga talabalarni jalb qilishda (basharti ular uchun bunday ishlarga tibbiy tavsiyalarda taqiqlanmagan bo'lsa) faqat ularning roziligi bilangina, nazorat qilish;

2.1.8. Ishga qabul qilingan talabalarga laboratoriya-imtihon sessiyasida qatnashish davrida mehnat qonunchiligida belgilangan tartib va miqdorlarida ish haqi saqlangan holda qo'shimcha ta'til berishni talab qilish.

2.2. Tashkilotni huquq va majburiyatlari:

2.2.1. Tashkilotni vakant o'rinlari va ish xarakteri to'grisida to'liq ma'lumotlarni talabalarga yetkazishni Universitetdan talab qilish;

2.2.2. Ishga qabul qilingan talabalar va ularga biriktirilgan ma'sul hodimlar ro'yxatini yuritishni Universitetdan talab qilish;

2.2.3. Ishga qabul qilingan talabalar uchun tegishli sharoitlar yaratilishni ta'minlash;

2.2.4. Ishga qabul qilingan talabalarni ichki mehnat tartibi, mehnat muhofazasi, yong'in va texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishtirish;

2.2.5. Ishga qabul qilingan talabalarni tungi vaqtlardagi ishlarga, shuningdek ish vaqtidan tashqari ishlarga jalb qilmaslikni talab qilish;

2.1.6. Dam olish kunlaridagi ishlarga ishga qabul qilishda talabalarni jalb qilishga faqat ularning roziligi bilangina, basharti ular uchun bunday ishlarga tibbiy tavsiyalarda taqiqlanmagan bo'lsa jalb qilish;

2.1.7. Ishga qabul qilingan talabalarga laboratoriya-imtihon sessiyasida qatnashish davrida mehnat qonunchiligida belgilangan tartib va miqdorlarida ish haqi saqlangan holda qo'shimcha ta'til berish.

III. Yakuniy qoidalar:

3.1. Mazkur Shartnoma Universitet va Tashkilot tomonidan imzolagan kundan kuchga kiradi va "___" _____ 20__ yilgacha amal qiladi.

3.2. Mazkur Shartnoma teng huquqiy kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzildi va tomonlarda bir nusxadan saqlanadi.

3.3. Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, uning amal qilishini muddatidan oldin to'xtatish tomonlarning o'zaro yozma kelishuviga asosan amalga oshiriladi.

3.4. Universitet va Tashkilot hamda ishga qabul qilingan talabalar o'rtasidagi munosabatlar mazkur Shartnoma talablari asosida tartibga solinadi.

3.5. Mazkur Shartnomada ko'zda tutilmagan holatlar yuzasidan barcha kelishmovchilik va nizolar amaldagi qonun hujjatlari talablari asosida hal etiladi.

O'zbekiston davlat jahon
tillari universiteti rektori

I.M.Tuxtasinov



"29" mart 2024 y.

ННУ «Teach for Uzbekistan»

Юридический адрес: город Ташкент,
Мирзо Улугбекский район,
пр.Мустакиллик, д. 7

ИНН: 207363013


Р/с: 20212000507011689001

Филиал «Ипотека-Банк» АТИБ

МЕХНАТ

МФО: 00423

Директор: Умида Йулдошева



"29" mart 2024 y.